

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.07.2024.I.78.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TUROPOVA NIGORA XOLMUROD QIZI

MAHALLIY BUDJETLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI
TA'MINLASHDA BIRIKTIRILGAN VA TARTIBGA SOLUVCHI
SOLIQLARNING MUVOFIQLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Turoпова Nigora Xolmurod qizi

Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning muvofiqligini ta'minlash muammolari..... 5

Туропова Нигора Холмурод кизи

Проблемы обеспечения совместимости прикрепленных и классифицированных налогов при обеспечении финансовой устойчивости местных бюджетов..... 31

Turapova Nigora Kholmurod kizi

Problems of ensuring compatibility of attached and classified taxes while ensuring financial stability of local budgets..... 61

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 67

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.07.2024.I.78.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TUROPOVA NIGORA XOLMUROD QIZI

MAHALLIY BUDJETLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI
TA'MINLASHDA BIRIKTIRILGAN VA TARTIBGA SOLUVCHI
SOLIQLARNING MUVOFIQLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.1.PhD/Iqt5081 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuye.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Alimardanov Ilhom Muzrobshoyevich**
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xo'jaqulov Ramshod Yunusovich.
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot: **Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **PhD.03/30.07.2024.I.78.06** raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "7" 08 soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99 876) 221-72-34, faks.: (99 862) 228 -01 -20, e-mail: info@tersu.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (307 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99 876) 221-72-34, faks.: (99 876) 228 -01 -20, e-mail: info@tersu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "23" 02 kuni tarqatildi.
(2025-yil "23" 07 dagi 4 raqamli reestr bayonnomasi).



A.H. Toshqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.T. To'lov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

S.J. Gadoyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida davlat moliyaviy siyosatida budget tizimi budjetlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bilan muammolarning yechimlariga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashga alohida e'tibor berilmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasining xulosalariga ko'ra, dunyoning turli rivojlangan mamlakatlarida biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni muvofiqlashtirish muammosi keskin saqlanib qolinmoqda. Misol uchun, "Shvetsiyada mahalliy soliqlardan olingan daromadlarning taxminan 60% ini tashkil etadi. Bu miqdor 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 3-5% o'sishini ko'rsatdi, mahalliy budjetlar uchun ajratilgan subsidiya miqdori 2023-yilda 30 milliard yevroga yetdi. Germaniya mahalliy soliqlari, ayniqsa, yer soliqlari va mulk soliqlarining ko'payishi bilan ajralib turadi. 2023-yilda mahalliy soliqlardan olingan tushumlar 2022-yilga nisbatan 3-4% ga oshdi. 2023-yilda federal hukumat tomonidan mahalliy budjetlarga 100 milliard yevro subsidiya ajratilgan va bunda davlatlarda soliq-budget siyosatida tez-tez o'zgartirishlar qilishga majbur qilmogda"¹. Bunda asosiy jarayonlardan biri sifatida mahalliy budjetlarning barqarorligini ta'minlash bo'lib, buning muhim omillari sifatida biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarining nisbat munosabatlarini muvofiqlashtirib borish katta ahamiyat kasb etadi.

Jahonda mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar o'rtasidagi muvofiqlik muammosi zamonaviy moliya-fiskal siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar, asosan, soliq tushumlarining barqarorligi va prognoz qilinuvchanligini oshirish, byudjetlararo munosabatlarni optimallashtirish, hududiy moliyaviy mustaqillikni ta'minlash, hamda soliqlar taqsimoti orqali ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqotlar milliy va mahalliy darajalarda soliq vakolatlarining aniq chegaralarini belgilash, tartibga soluvchi transfertlar mexanizmlarini takomillashtirish, hamda fiskal xavfsizlikni saqlashda makroiqtisodiy barqarorlikning rolini tahlil qilish orqali soliq siyosatining samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni qamrab olmoqda.

O'zbekistonda mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar o'rtasidagi muvofiqlikni yuzaga keltirish borasida bir qator institutsional va me'yoriy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, budjetlararo munosabatlarni tartibga solishning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda, mahalliy hokimiyat organlarining soliqdan tushadigan daromad bazasini kengaytirish va ularning moliyaviy mustaqilligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanmoqda. Davlat budjeti va mahalliy budjetlar o'rtasida soliq tushumlarini taqsimlashda aniq va shaffof mezonlar tatbiq etilmoqda, shu jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va foyda solig'ining bir qismini mahalliy budjetlarga biriktirish amaliyoti kengaytirilmoqda. Bundan tashqari, tartibga soluvchi transfertlar tizimi qayta ko'rib chiqilib, ularning hisob-kitoblari aholining ijtimoiy ehtiyojlari va hududiy rivojlanish darajasi asosida shakllantirilmoqda. Shu orqali mahalliy budjetlarning barqaror daromad manbalariga

¹Code of Good Practices on Fiscal Transparency sayti ma'lumotlari

ega bo‘lishi va samarali fiskal boshqaruvni amalga oshirish maqsad qilingan. Soliq to‘lovchilar faoliyatini rag‘batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo‘nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan bugungi kunda mahalliy budjetlarni shakllantirish va ularni moliyaviy barqarorligini ta‘minlash borasidagi jarayonlar holati shuni ko‘rsatmoqdaki, bu borada hali o‘z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud bo‘lib turibdiki, ularning yechimlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish masalalari kun tartibiga chiqib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-son “Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 7-iyundagi PQ-3042-son “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas‘uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda biriktirilgan va tartiblovchi soliqlarning muvofiqligini ta‘minlashning nazariy-uslubiy masalalari bo‘yicha juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan A.Wagner, K.H.Rau, D.Rikardo, U.Petti, P.Proudhon, Dj.M.Keyns, F.Kene, Dj.S.Mill, K.R.Makkonell, I.Ya.Lukasevich, L.S.Tarasevich, P.I.Grebenikov, A.I.Leuskiy, N.A.Bondareva, I.A.Mayburov, Seligman E, Sturm R, M.R.Pinskaya, V.A.Ruban, V.V.Tomarov, N.V.Zamyatina, G.I.Danchikova, T.N.Roslyakova, A.Shaxmardanova va bir qator olimlar tomonidan mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda biriktirilgan va tartiblovchi soliqlarning muvofiqligini ta‘minlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilingan².

² Wagner A., Rau K.H. Lehrbuch der Finanzwissenschaft. 6th ed. 1855. Delhi: Facsimile Publisher; 2015. 954 p.

Рикардо Д. Начала политической экономии и податного обложения. Перевод с английского под редакцией Н. Рязанова. Москва: изд. «Звено», 1910., У. Петти «Трактат о налогах и сборах. Verbum sapienti — слово мудрым. Разное о деньгах» (М.: Ось-89, 1997). , Proudhon P. Systeme des contradictions economiques, ou Philosophie de la misere. 1846. Т. 1. Р. 27., Финансы, денежное обращение и кредит. Под редакцией проф. М.В.Романовского.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan E.F.Gadoyev, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, S.K.Xudoyqulov, B.E.Toshmurodova, A.X.Islamkulov, A.H.Toshqulov, M.Xaydarov, N.G.Muminov, N.X.Turdiqulov, F.Fayziyev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida respublikamiz soliq siyosatining u yoki bu qirralari tegishli mavzu doirasida tadqiq qilingan, ilmiy xulosalar berilgan va ayrim ilmiy tavsiyalar keltirilgan³.

Jumladan, N.X.Turdiqulov ham o‘z ilmiy ishlarida mahalliy budjetlarning daromadlarini mustahkamlashda byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish muammolarini o‘rgangan, N.Mo‘minov budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan, B.Abibullayev budjet daromadlarini shakllantirishda

Учебник. 3-е. издание. М.: Юрайт. 2018,-523 с., И.Я.Лукаевич. Финансовый менеджмент. Учебное пособие. М.: Эксмо. 2016.-552 с., Л.С.Тарасевич, П.И.Гребеников, А.И.Леусский. Теория корпоративных финансов. Учебник. М.: Высшее образование. 2015.-237 с., Н.А.Бондарева. Финансы, налоги и налогообложение. Учебник. М.:УНИВЕРСИТЕТ СИНЕРГИЯ. 2018.-128 с., И.А.Майбуров и др. Налоги и налогообложение. Учебник. 4-издание. М.:ИНФРА-М. 2017.-555 с., Селигман Э. и Стурм Р. Этюды по теории обложения. СПб., 1908, с. 9., Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложения/ Под. Ред. В.С.Барда: М.: 2004.-216 с., Рубан Владимир Алексеевич. Укрепление бюджетов органов местного самоуправления в условиях реформирования межбюджетных отношений. Специальности: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит; автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 1999. стр. 27., Томаров Владислав Валерьевич. Равное регулирование региональных и местных налогов и сборов в Российской Федерации. Специальности: 12.00.14 — Административное право, финансовое право, информационное право. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2000 г. стр. 31., Замятина Наталья Викторовна. Пути реформирования межбюджетных отношений в Российской Федерации. Специальности: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит; автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург, 2002. стр. 29., Данчикова Галина Иннокентьевна. Реформирование межбюджетных отношений в РФ: Региональный аспект. Специальности: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит; автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва, 2001. с. 33., Рослякова Татьяна Николаевна. Формирование стабильных налоговых доходов местных бюджетов в посткризисной экономике. Специальности: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит; автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ростов-на-Дону 2006. С.28., Шахмарданова Карима Арифовна. Муниципальные финансы как фактор развития бюджетного федерализма в Российской Федерации. Специальности: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит; автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Махачкала – 2011. с.31.

³ E.F.Gadoyev va b. Bilvosita soliqlar: qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i. Toshkent: “NORMA”, 2011. 327 b.; Sh.A.Toshmatov Qo‘shilgan qiymat solig‘i. Monografiya. Toshkent.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2004. -160 b.; T.S.Malikov, N.X.Haydarov Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. -556 b.; S.S.Azimov, “Kameral soliq tekshiruvini tashkil etishda tashqi manba ma’lumotlaridan samarali foydalanish” mavzusidagi PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi, 2022-yil., J.J.Urmonov, (2018), Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DcS) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 27-38 b. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: “Akademiya”, 2000. – 276 b.; Toshmurodova B.E. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi: Monografiya. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 127 b.; Yahyoyev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003. – 247 b.; Xaydarov N.X. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarni takomillashtirish masalalari // i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. 2003. – 34 b.; Islamkulov A.X. Byudjetlararo mutanosiblikni ta’minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish // i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. 2020. – 71 b.; Toshqulov A. Qishloq xo‘jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida rag‘batlantirish masalalari (Surxondaryo viloyati misolida) // i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T. 2021. – 80 b.; Muminov Nozim Gaffarovich. Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishda innovatsion yondashuv. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy 2020, 1(133)., Turdiqulov N.X. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish masalalari. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy № 9, 2012., F.Fayziyev. Mahalliy byudjetlar daromadlari bazasini kengaytirishda birlashtirilgan soliqlar rolini oshirish masalalar. 08.00.07 - “Moliya, pul muomalasi va kredit” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI. Toshkent shahri – 2021-yil. 58 b.,

mahalliy soliqlar rolini oshirish muammolarini tadqiq qilgan, A.X.Islamqulov budjetlararo mutanosiblikni ta'minlashda biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimini yanada takomillashtirish masalalarini ilmiy tadqiq qilgan, A.Mamanazarov esa mahalliy budjetlarni barqarorlashtirishda soliqlar, shu jumladan biriktirilgan soliqlarning rolini oshirish masalalarini tahlil qilgan, iqtisodchi J.Yesmurzayev iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy soliqlar va yig'implarni undirish mexanizmini takomillashtirish muammolarini ko'rib chiqqan, H.Qobulov hududiy iqtisodiyot va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirishda biriktirilgan va tartibga soluvchisi soliqlardan samarali foydalanishning ayrim jihatlarni ko'rib chiqqan, A.Xayriddinov esa, mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlashning samarali yo'llarini ko'rsatib bergan bo'lsa, X.Qurbonov mahalliy budjetlar doirasida byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish va unda soliqlardan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatib bergan, A.Suvanov mahalliy budjetlar ijrosi samaradorligini oshirishda biriktirilgan soliqlardan samarali foydalanish yo'nalishlarini asoslab bergan bo'lsa, yana iqtisodchi olim Z.Ro'ziyevning ilmiy tadqiqotlarida mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalarini tadqiq qilingan bo'lib, unda ham mahalliy budjetlarning daromadlarini mustahkamlashda biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimidan samarali qo'llashning ayrim jihatlarni tadqiq qilgan va shu kabilar.

Biroq, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biriktirilgan va tartiblovchi soliqlarning muvofiqligini ta'minlashga yo'naltirilgan yaxlit ilmiy tadqiqot ishlari juda kam oshirilganki, bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida soliq turlarini budjetlar o'rtasida mutanosib taqsimlashning samarasini ta'minlash bilan ilmiy tadqiqotlarga ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolinmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni mutanosib taqsimlash orqali mahalliy budjetlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy negizini ilmiy jihatdan asoslab berish;

biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimining zaruriy omillarini ko'rsatib berish;

biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni muvofiqlashtirish uslublarini yoritib berish;

biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning muvofiqligiga oid ilmiy-nazariy qarashlarning ilmiy tahlil qilish;

biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlanish holatini amaliy tahlil qilish;

biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlanishi orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasini o'rganish va ilg'or tajribalaridan O'zbekiston budjet tizimida foydalanish yuzasidan tavsiyalar berish;

biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni budjet tizimi budjetlari o'rtasida mutanosib taqsimlash orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va shu kabilar.

Tadqiqotning obyekti sifatida biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlari o'rtasida mutanosib taqsimlash bilan bog'liq jarayonlar olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib O'zbekistonda mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni mutanosib taqsimlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy soliq stavkalari miqdorini tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda amalda o'rnatilgan qat'iy soliq stavkalarining eng kam va eng yuqori darajalari chegarasida belgilash borasidagi moliyaviy huquqlarni taqdim etish orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash asoslangan;

soliq to'lovchi yuridik shaxs tomonidan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar yangi barpo etilgan holatda egallagan yerlar (daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'iy nazar) bo'yicha soliq stavkasini besh yil muddatga 50 foizga kamaytirilgan holda belgilash orqali yerdan samarali foydalanishni rag'batlantirish va mas'uliyatni oshirish taklifi asoslangan;

mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) Kengashlariga suv resurslaridan foydalanganlik solig'i stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkaga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolatini berish orqali mahalliy budjetlar daromadlarining yangi manbalarini yuzaga keltirish va moliyaviy barqarorligini oshirish taklifi asoslangan;

hududlardagi belgilangan mezonlar bo'yicha yirik soliq to'lovchi toifasida baholanib, soliq ma'muriyatchiligi Davlat soliq qo'mitasi funksiyasiga o'tkaziluvchi soliq to'lovchilarni mezonlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish asosida mahalliy budjetlarga qaytarib berish orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirish va qo'llab-quvvatlash taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti deb hisoblanishi, yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining egalari ushbu vositalarning avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'imni joriy etish taklifi ishlab chiqilgan;

yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) tomonidan ular yollagan xodimlari uchun soliq yukini pasaytirish maqsadida jami daromadi 100 mln so‘mgacha bo‘lgan YATTLarning xodimlarini 12 foizlik jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilgan holda YATT egasi uchun belgilangan soliq stavkasining 50 foizi miqdorida qat’iy daromad solig‘ini joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

ayrim soliq turlari qat’iy belgilangan soliq, mol-mulk solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini indeksatsiya qilishning iqtisodiy ilmiy asoslari sifatida hisob-kitoblar ishlab chiqilgan;

biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni muvofiqlashtirish uslubiyati ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni budjet tizimi budjetlari o‘rtasida mutanosib taqsimlash orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash jarayonini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston soliq tizimida budjet-soliq siyosatining samaradorligini oshirishga, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga erishish, shuningdek, bu boradagi o‘quv va ilmiy adabiyotlarini tayyorlashda, shuningdek, mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni budjet tizimi budjetlari o‘rtasida mutanosib taqsimlash orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan bog‘liq ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy soliq stavkalari miqdorini tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda amalda o‘rnatilgan qat’iy soliq stavkalarining eng kam va eng yuqori darajalari chegarasida belgilash borasidagi moliyaviy huquqlarni taqdim etish orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash taklifi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-sonda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 4-yanvardagi 06/04-32-58-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi natijasida mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda mahalliy hokimliklarning rolini mustahkamlash imkoni yaratilgan;

soliq to‘lovchi yuridik shaxs tomonidan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar yangi barpo etilgan holatda egallagan yerlar (daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi

ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'iy nazar) bo'yicha soliq stavkasini besh yil muddatga 50 foizga kamaytirilgan holda belgilash orqali yerdan samarali foydalanishni rag'batlantirish va mas'uliyatni oshirish taklifi "O'zbekiston Respublikasining Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-sonda o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 4-yanvardagi 06/04-32-58-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida mahalliy budjetlarning birlashtirilgan soliqlaridan samarali foydalanish imkoniyati paydo bo'lib, ularning moliyaviy barqarorligini oshishi ta'minlangan;

mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) Kengashlariga suv solig'i stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkaga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolatini berish orqali mahalliy budjetlar daromadlarining yangi manbalarini yuzaga keltirish va moliyaviy barqarorligini oshirish taklifi "Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-1014-son) hamda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-1013-son)da o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 4-yanvardagi 06/04-32-58-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida mahalliy budjetlarning daromadlarining yangi manbalarini yuzaga kelishi va ularning moliyaviy barqarorligini oshishi ta'minlangan;

hududlardagi belgilangan mezonlar bo'yicha yirik soliq to'lovchi toifasida baholanib, soliq ma'muriyatchiligi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi funksiyasiga o'tkaziluvchi soliq to'lovchilarni mezonlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish asosida mahalliy budjetlarga qaytarib berish orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirish va qo'llab-quvvatlash taklifi "O'zbekiston Respublikasining Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-sonda o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 4-yanvardagi 06/04-32-58-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida budjet tizimi budjetlari o'rtasida birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni optimal darajada taqsimlash imkoniyati paydo bo'ldi va mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligi oshishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobeiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami

15 ta ilmiy ish, jumladan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan, mahalliy jurnallarda 3 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.


Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida soliq-budjet tizimida biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari ko‘rsatib berilgan, biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy negizi, biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimining zaruriy omillari, tartibga soluvchi soliqlarga bo‘lgan ehtiyojni belgilovchi omillari ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan, biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni muvofiqlashtirish uslubi va mahalliy budjetlarining daromadlarini biriktirilgan va tartibga soluvchi daromad manbalari ko‘rsatib berilgan, biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning muvofiqligiga oid ilmiy-nazariy qarashlarning ilmiy talqini nazariy jihatdan tahlil etilgan hamda bunga muallifning ilmiy yondoshuvlari bayon etilgan.

Davlatlarning tuzilishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qaraganda budjet-soliq tizimining tuzilishi va amal qilinishiga muhim asos va arxitekturasining asosi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ham unitar davlat shakliga kirib, budjet-soliq tizimi ham ushandan kelib chiqib shakllangan. Umumiy nazariy tahlil shundan iboratki, belgilangan soliqlar ko‘pincha muayyan sohalarni (masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilmani) moliyalashtirish kabi aniq maqsadlarga qaratilgan bo‘lsa, tartibga soluvchi soliqlar ko‘pincha xatti-harakatlarni o‘zgartirish yoki muayyan bozorlarni nazorat qilish uchun ishlatiladi. Rivojlangan mamlakatlarda, odatda, davlat ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun mablag‘larni jalb qilish va zararli xatti-harakatlarni tuzatish yoki ayrim tovarlar va xizmatlar iste’molini cheklash uchun soliqlardan foydalanish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan turli soliq yondashuvlari mavjud. Ta’kidlash joizki, ushbu turdagi soliqlar o‘rtasidagi muvozanat iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy ehtiyojlar va davlat ustuvorliklarining o‘zgarishiga qarab o‘zgarib boradi. Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar o‘rtasidagi muvozanat mamlakatdan mamlakatga farq qilishi, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy ehtiyojlar va hukumat ustuvorliklariga bog‘liq.




1-rasm. Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimining zaruriy omillari⁴.

Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimining zaruriy omillarini uch guruhga bo'lish mumkin. Bularning ichida eng muhimi barcha davlatlar uchun umumiy xos xususiyat bu hududlarning notekis rivojlanishi bo'lib, ushbu omil tartibga soluvchi soliqlarni zarurat qilib qo'yadigan eng muhimi hisoblanadi. Davlat o'zining milliy rivojlanish dasturlari orqali hududlarning rivojlanishini yaqinlashtirishga harakat qiladi. Ammo, resurslarning notekis taqsimlanishi, ayniqsa, tabiiy boyliklarning mavjudligi yoki yo'qligi o'sha hududning rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak, kon-metallurgiya sanoati uchun muhim xom-ashyo joylashgan Navoiy, Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyatlarining sanoat bo'yicha o'rta aholi jon boshiga ishlab chiqarishi bo'yicha yuqori hisoblanadi, Toshkent shahri esa infratuzilmaning rivojlanishi yuqoriligi uchun mahalliy budjetga soliq tushumlarini jalb qilishda katta imkoniyatlarga egadir.

⁴Muallif tomonidan tayyorlangan

Biriktirilgan va tartibga solinadigan soliqlar oʻrtasidagi munosabatlar maʼlum bir mamlakatning soliq siyosatiga, uning ustuvor yoʻnalishlariga va umumiy iqtisodiy sharoitlarga bogʻliq. Shuni taʼkidlash kerakki, biriktirilgan (qatʼiy belgilangan) va tartibga soluvchi soliqlar oʻrtasidagi munosabatlar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar oʻrtasidagi murakkab muvozanat natijasidir. Ushbu turdagi soliqlar oʻrtasidagi umumiy muvozanat vaqt oʻtishi bilan jamiyatdagi oʻzgaruvchan sharoit va ustuvorliklarga qarab oʻzgarishi mumkin. Shuningdek, u har bir mamlakatning oʻziga xos xususiyatlari va soliq tizimiga boʻysunadi. Ularning kiritilishi odatda muayyan sektorlar yoki dasturlarni moliyalashtirishga qaratilgan.



2-rasm. Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarga boʻlgan ehtiyojni belgilovchi omillar⁵

Tartibga soluvchi soliqlarning miqdori va ulardan mahalliy budjetlarga ajratilishi biriktirilgan soliqlar boʻyicha doimiy ravishda ehtiyojlarni qondirishiga bogʻliq boʻladi. Oʻz navbatida biriktirilgan soliqlarning darajasiga taʼsir qiluvchi omillarga ham bogʻliq boʻladi. Bu omillar sifatida 2-rasmda keltirilganidek, soliq bazasi muhim hisoblanadi, vaholanki, soliq bazasi darajasiga esa boshqa omillar sifatida keltirilayotgan hududdagi qurilish darajasi, buning ichida aholi tomonidan qurilayotgan uy-joy qurilish darajasi (soni va kadastr qiymati), yer uchastkalarining boniteti, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, tartibga soluvchi soliqlarning ajratilishi boʻyicha normalarning darajasi, suv va yer qaʼri resurslaridan foydalanish darajasi kabi omillar taʼsir qiladi.

Dissertatsiyaning **“Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar orqali mahalliy budjetlarning barqarorligini taʼminlash amaliyoti tahlili”** deb nomlangan ikkinchi

⁵Muallif tomonidan tayyorlangan.

bobida mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlashda biriktirilgan soliqlarning ahamiyati va uning tahlili, mahalliy budjetlarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda tartibga soluvchi soliqlarning o'rni, mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlariga ta'sir qiluvchi omillar va budjetlararo munosabatlar holati tahlili amalga oshirilgan, tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan va bu boradagi muammolarning ildizlariga asos bo'luvchi xulosalar shakllantirilgan.

1-jadval.

Biriktirilgan soliqlarning jami davlat budjeti daromadlaridagi ulushi⁶

№	Ko'rsatkichlar	yillar			
		2020	2021	2022	2023
1	Jami davlat budjeti daromadlari (mlrd so'm)	132 938	164 799	202 043	232 664
2	Aylanmadan olinadigan soliq (mlrd so'm)	1396,5	1649,4	2512,7	2407,3
3	Mol-mulk solig'i (mlrd so'm)	1974,3	2457,3	4015,4	5097,7
4	Yer solig'i (mlrd so'm)	2386,6	4082,8	5305,9	6890,1
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (mlrd so'm)	478,8	684,4	704,1	791,4
6	Aylanmadan olinadigan soliqning jami Davlat budjetidagi ulushi (%)	1,0	1,0	1,2	1,0
7	Mol-mulk soliqning jami Davlat budjetidagi ulushi (%)	1,4	1,5	2,6	2,2
8	Yer solig'ining jami Davlat budjetidagi ulushi (%)	1,8	2,4	2,6	3,0
9	Suv resurslaridan olinadigan soliqning jami Davlat budjetidagi ulushi (%)	0,3	0,4	0,3	0,3

Biriktirilgan soliqlar sifatida Budjet kodeksining 52-moddasida keltirilganidik, yer solig'i (yuridik va jismoniy shaxslar uchun), mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, aylanmadan olinadigan soliqlar olingan. Biriktirilgan soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushiga qaraydigan bo'lsak, ular o'rtacha 1-,1,4 foizda bo'lgan bo'lsa, ularning jami budjet daromadlarigi ulushi 4-6 foizni tashkil qilib, umumiy davlat budjetiga ulushi unchalik yuqori emas. Ta'kidlash joizki, biriktirilgan soliqlar ichida mami davlat budjeti daromadlarini shakllanishidagi o'rni va ahamiyati jihatdan eng katta ulushni yer solig'i va mol-mulk solig'i egallaydi, ya'ni, yer solig'ining o'rtacha davlat budjeti jami daromadlarining o'rtacha 1,8-3,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, mol-mulk solig'i tahlil qilinayotgan 2019-2023-yillarda esa, 1,4-2,2 foiz oralig'ida ulushga ega bo'lgan, albatta boshqa soliqlarga nisbatan ulushi kamroq hisoblanadi.

⁶ O'zbekiston Respubkikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Biriktirilgan soliqlarning mahalliy budjetlardagi ulushi⁷

№	Ko'rsatkichlar	yillar			
		2020	2021	2022	2023
1	Jami mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlari (mlrd so'm)	6236,2	8873,9	12538,1	15186,5
2	Aylanmadan olinadigan soliq (mlrd so'm)	1396,5	1649,4	2512,7	2407,3
3	Mol-mulk solig'i (mlrd so'm)	1974,3	2457,3	4015,4	5097,7
4	Yer solig'i (mlrd so'm)	2386,6	4082,8	5305,9	6890,1
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (mlrd so'm)	478,8	684,4	704,1	791,4
6	Aylanmadan olinadigan soliqning jami mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlarining ulushi (%)	22,3	18,5	20,0	15,8
7	Mol-mulk soliqning jami mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlarining ulushi (%)	31,6	27,7	32,0	33,5
8	Yer solig'ining jami mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlarining ulushi (%)	38,8	46,0	42,3	45,4
9	Suv resurslaridan olinadigan soliqning jami mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlarining ulushi (%)	7,3	7,8	5,7	5,3

Yuqoridagi 2-jadvaldagi ma'lumot asosida ushbu holatni tahlil qiladigan bo'lsak, jami mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlar orasida eng katta ulushni yer solig'i tashkil etadi, ya'ni uning ulushi o'rtacha 38,8-45,4 foizni tashkil etadi, mol-mulk solig'i esa keyingi katta ulushni egallaydiki, uning ulushi 2020-2023-yillarda 31,6-33,5 foiz oralig'ida bo'lgan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliq esa o'rtacha 18-20 foizni tashkil etadi. Eng kam ulush esa suv resurslardan foydalanganlik uchun soliqqa tegishli bo'lib, bu soliqning hissasi 5-7,5 foizga tengdir.

Surxondaryo viloyati mahalliy budjetini shakllantirishda biriktirilgan soliqlarning ulushi yuqori emas. Ya'ni, tahlillarga qaraganda ular 2020-yil 20,4 foiz, 2021-yil 20,5 foiz, 2022-yilda 20,4 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda esa biroz oshgan holda 22,4 foizni tashkil qiladi. Umumiy tartibda va nazariy jihatdan olib qaralganda mahalliy budjetlar biriktirilgan soliqlari mahalliy budjetlarning moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabini ta'minlash lozim, biroq, Surxonadaryo viloyati mahalliy budjetida bu mablag'larning yarmini ham qoplamayapti. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, bu viloyatda mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlarning hajmini oshirish uchun ichki imkoniyatlardan to'laqonli foydalanilmayapti. Shu maqsadda

⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

soliq hisobini to‘g‘ri yuritgan holda xufyona iqtisodiyot darajasini kamaytirish orqali birlashtirilgan soliqlar bo‘yicha real soliq tushumlarini oshirish zarur bo‘ladi.

3-jadval.

Surxondaryo viloyati mahalliy budjetida birlashtirilgan soliqlarning tutgan o‘rni (mln so‘m)⁸

№	Ko‘rsatkichlar	yillar			
		2020	2021	2022	2023
1	Yalpi hududiy mahsulot	24 625 654,6	29 693 291,2	34 858 642,6	40 165 424,4
2	Jami mahalliy budjeti daromadlari	1 605 745,2	1 993 312,3	2 670 654,6	3 043 210,0
3	Mahalliy budjetlarning birlashtirilgan soliqlari	328 386,8	410 233,3	545 769,7	684 145,9
4	Mahalliy budjetlar birlashtirilgan soliqlarining jami YAHM ulushi (%)	1,3	1,3	1,5	1,7
5	Mahalliy budjetlar birlashtirilgan soliqlarining jami mahalliy budjet daromadlariga ulushi (%)	20,4	20,5	20,4	22,4

Mahalliy budjetlarning moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan talabini ularga birlashtirilgan soliqlar yetarlicha ta‘minlab bera olmaydi, ayniqsa tadqiqot obyektimiz bo‘lgan Surxondaryo viloyatida bu ko‘rsatkich 50 foizga ham bormaydi. Dunyo amaliyotida mahalliy budjetlarning moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan talabini qondirishning bir necha usullaridan keng foydalaniladi. Birinchisi bu ularga birlashtirilgan soliqlarning turini oshirish, soliq tushumlari ko‘proq tushadigan soliqlarni mahalliy budjetlarga qoldirish orqali ularning moliyaviy mablag‘larini ko‘paytirish, ikkinchisi, mamlakatdagi budjet-soliq siyosatidan kelib chiqib, birlashtirilgan soliqlar va yig‘imlarning stavkalarini har yili imkoniyatdan kelib chiqib oshirib borish va uning evaziga umumdavlat soliqlari bo‘yicha ayrim turlari bo‘yicha soliq stavkalarini tushirish, soliq imtiyozlarini oshirish tufayli o‘rtadagi muvozanatni tiklash, uchinchisi esa, har yiligi mavjud holatdan kelib chiqib, ayrim umumdavlat soliq turlari bo‘yicha mahalliy budjetlarga qoldiradigan qismi bo‘yicha normalarni belgilash, ayrim soliq turlari bo‘yicha muayan muddat mahalliy budjetlarga qoldirish, to‘rtinchidan, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash uchun mahalliy hokimliklarning moliyaviy huquqlarini kengaytirish, vaziyatdan moliyaviy siyosatning umumiy yo‘nalishlaridan kelib chiqib ayrim mahalliy yig‘imlarni joriy etishga ruxsat berish orqali yetarli mablag‘larni jalb qilishi amaliyoti mumkin.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi va Surxondaryo viloyati Moliya boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

**Surxondaryo viloyati budjetida tartibga soluvchi soliqlarning tutgan o‘rni
(mln so‘m)⁹**

№	Ko‘rsatkichlar	yillar			
		2020	2021	2022	2023
1	Yalpi hududiy mahsulot	24 625 654,6	29 693 291,2	34 858642,6	40 165 424,4
2	Mahalliy budjetlarning jami daromadlari	1 605745,2	1 993 312,3	2 670 654,6	3 043 210,0
3	Mahalliy budjetning tartiblovchi soliqlari bo‘yicha tushumlar	908 108,9	109 4418,1	136 0937,8	156 2516,0
4	Mahalliy budjetlar tartibga soluvchi soliqlarining YAIMdagi ulushi (%)	3,6	3,7	3,9	3,9
5	Mahalliy budjetlarning tartibga soluvchi jami budjet daromadlarigi ulushi (%)	56,2	55,0	51,0	51,3
6	Foyd asolig‘i	72 893,8	54 930,1	116 482,8	85 189,8
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	648 971,1	772 597,7	994 497,1	1 232 918,2
8	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	14 223,2	20 563,7	18 686,4	17 394,7
9	Yakuniy iste‘molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	119 982,2	157 910,7	188 803,9	199 021,1
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	52 038,4	88 415,6	42 467,4	27 991,9

Surxondaryo viloyatida bo‘yicha mahalliy budjetlarning tartibga soluvchi soliqlari mahalliy budjetni daromadlarini shakllantirishda biriktirilgan soliqlarga nisbatn yuqori ahamiyatga egadir, buni yuqoridagi jadvallardan ham ko‘rish mumkin. Viloyat mahalliy budjetida tartibga soluvchi soliqlarning YAIMdagi ulushi esa o‘rtacha 3,5-3,9 foizni tashkil etadi. Mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlariga ta‘sir qiluvchi omillar tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. Bunday omillar sirasiga biriktirilgan soliqlar jumlasiga kiruvchi soliqlarning xususiyatlariga qarab turlicha bo‘lishi mumkin.

⁹ O‘zbekiston Respubkikasi Soliq qo‘mitasi va Surxondaryo viloyati Moliya boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy qurilish ishlari hajmi¹⁰
(mlrd so‘m, yil boshiga)

№	Hududlar	yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1	Respublika bo‘yicha	51129,3	71156,5	88130,3	107492,7	130790,9
2	Qoraqolpog‘iston R.	2182,7	3315,4	3992,5	4480,6	5272,4
3	Andijon	2819,5	3539,1	4673,0	5657,8	6864,1
4	Buxoro	3581,2	4368,1	5659,8	7401,1	8448,7
5	Jizzax	1564,3	2510,6	2715,0	3085,4	3446,4
6	Qashqadaryo	3701,1	4365,3	4832,6	6336,6	7793,8
7	Navoiy	2280,8	3464,0	3944,7	5155,5	5855,0
8	Namangan	2257,6	3471,0	4678,2	5556,7	6653,2
9	Samarqand	3299,0	4527,2	5755,3	7385,7	8895,4
10	Surxondaryo	2879,7	3979,7	4774,7	5868,4	6521,9
11	Sirdaryo	1001,1	1926,2	2407,6	2708,8	3260,1
12	Toshkent viloyati	3006,7	5594,1	7102,6	9401,2	12237,4
13	Farg‘ona	2942,7	4162,8	5473,9	6993,7	8646,0
14	Xorazm	1878,3	2496,8	2856,8	4228,5	4878,4
15	Toshkent shahri	10870,7	16256,9	19215,4	26535,3	32946,1

Keltirilgan ushbu javdal ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, respublikamizda umumiy qurilish ishlari hajmi tahlil qilinayotgan yillar kesimida ortib borgan va mol-mulk solig‘i obyektiga bo‘lgan asosiy fondlarning qiymati ham oshib borgan. Ma’lumki, soliq qonunchiliga ko‘ra, barcha asosiy vositalar soliqqa tortilmaydi, ammo, qurilish ishlari hajmining oshishi umumiy nisbatda mol-mulk solig‘i bazasini oshiradi. Demak, xulosa qilish mumkinki, respublikamizda qurilish ishlarining ortishi, unda mol-mulk solig‘i obyektiga tortiladigan obyektlarning ortib borishini ko‘rish mumkin, o‘z navbatida bu respublikamizning soliq siyosatidagi taktik yo‘nalishlar, ya’ni mol-mulk solig‘i obyektlarini oshirib borish va ularning soliq bazasini bozor qiymatlari asosida soliqqa tortishni oshirib borish taktikasiga mos keladi.

Mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlarlan biri bu yer solig‘i bo‘lib, unga ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida yer fondlari muhim hisoblanadi. Mahalliy budjetlarning jami daromadlarida, ular bo‘yicha soliq qarzdorligi, soliq imtiyozlari va boshqa ko‘rsatkichlarda yer va mol-mulk solig‘i katta ulushni egallaydi. Soliqqa tortish maqsadida O‘zbekitsonda yer fondlari sakkiz toifaga ajratib tahlil qilinadi. Yerni soliqqa tortishda ulardan foydalanish, daromad olish, egalik qilish nuqtayi nazaridan yondoshiladi. Yerni egalik va foydalanish jihatdan yuridik shaxslar va aholining yerlarga yondoshuvda egalik va oqilona foydalanish tamoyillariga asoslanadi.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi qurilish ishlari va kommunal xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarining yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi va ularning biriktirilgan soliqlarga ta‘siri tahlili¹¹ (ming ga hisobida)


Umumiy yer maydoni	Ekin yerlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar	Bo‘z yerlar	Pichanzor va yaylovlar	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Tomorqa hamda bog‘dorchilik-uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalari yerlari	O‘rmonzorlar	Butazorlar	Boshqa yerlar
O‘zbekiston bo‘yicha jami									
24057,1	3988,4	400,1	78,6	14983,5	19450,6	652,5	65,9	50,4	3687,1
Surxondaryo viloyati									
1356,1	276,3	33,1	0,3	689,7	999,4	58,4	29	0,1	267,9

Qayd etish joizki biriktirilgan soliq hisoblanmish yer solig‘i bo‘yicha mahalliy budjetlarga ularning miqdori bilan birgalikda yerlarning fizik ko‘rsatkichi-boniteti katta ahamiyat kasb etadi. Bunda esa qishloq xo‘jalik yerlari muhim rol o‘ynaydi, sababi ularda mahsulot yaratilib qiymat yaratiladi, yalpi ichki mahsulot oshadi, yalpi ichki mahsulot esa boshqa soliqlarga muhim soliq bazasi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hisoblanadiki, yuqoridagi javdaldan ko‘rinadiki, respublikamizda jami umumiy yer maydonlarining (24057,1 ming gektar)ning 80,8 foizini qishloq xo‘jaligi yerlari tashkil qilsa, bu ko‘rsatkich 73,6 foizni ($999,4/1356,1$)*100) tashkil qiladi.

Mahalliy budjetlarning biriktirilgan soliqlaridan biri bo‘lgan yer solig‘i bazasiga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar ta‘siri ularning bontiteti qarab ta‘sir qilsada, sanoat, transport, aloqa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar ham har bir me‘yor uchun o‘rnatilgan yer uchastkasiga belgilangan soliq summasidan kelib chiqib ta‘sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning soliq bazasiga ta‘siri sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘lsa, sanoat, transport, aloqa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlarda miqdoriy ko‘rsatkichlar (ya‘ni, yer uchastkasi hajmiga qarab) asosida ta‘sir qiladi. Bu kabi yerlarning Surxondaryo viloyatida sanoat, transport, aloqa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar hozirgi kunda 876,3 ming ga bo‘lib, ularning boshqa toifasidagi yerlar 689,8 ming ga bo‘lib, 78,7 foizni tashkil qilgan, bo‘z yerlar pichanzorlar va qiloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar ham nisbatan katta ulushni egallaydi. Qayd etish joizki, bu toifadagi yerlar

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

ichida, kon sanoati, energetika korxonalari va inshootlar qurish uchun doimiy foydalanishga berilgan yerlar soliq tushumlari jihatdan katta ahamiyatga egadir.



3-rasm. Mahalliy budjetlarni budjetlararo munosabatlar orqali moliyaviy resurslarni muvofiqlashtirish yo'nalishlari¹²


Mahalliy budjetlar moliyaviy resurslarini muvofiqlashtirishda albatta, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar ham alohida rol o'ynaydi. Bu moliyaviy resurslar odatda mahalliy budjetlarning xarajatlarining tegishli daromadlar prognozlaridan oshgan qismini qoplash uchun qaytarilmaslik sharti bilan beriladigan mablag'lardir. Biroq, ma'lum bir moliyaviy cheklovlar ham mavjudki, unga ko'ra, yuqoridan quyi tartibda amal qiladigan budjet tizimi budjetlari doirasida tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlarini, quyi turuvchi budjetlarning daromadlari prognozlarining ijrosidan qat'i nazar, kamaytirilmaydi va shu orqali ularning moliyaviy mablag'larini muvofiqlashtirishga erishiladi. Mahalliy budjetlarga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlarning miqdorlari qayd etish kerakki, har yilgi moliya yilida "O'zbekiston respublikasi Davlat budjeti" to'g'risidagi qonun loyihasi qabul qilinayotganda va mahalliy budjetlari to'g'risidagi qarorlar tasdiqlanayotganda belgilanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida "Mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biriktirilgan va tartiblovchi soliqlardan samarali foydalanish yo'llari" deb nomlangan bo'lib, unda biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlashning xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilingan, biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning muvofiqligini ta'minlash orqali mahalliy budjetlar

¹² Amaldagi qonunchilik asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligi ta'minlash masalasi moliya tizimining doimiy va azaliy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda, qolaversa, uni tizim sifatida me'yoriy holatda bo'lishi ta'minlash esa, har bir davlatning moliyaviy siyosatidagi ustuvor vaziflardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga tushumlarni ko'paytirishga va soliq solinadigan bazani kengaytirishga yo'naltirilgan ishlarini takomillashtirish borasidagi faoliyatini tartibga solish va o'zaro hamkorligi"¹³ oshirildi, ularning o'zaro integratsiyasi kuchaydi, mahalliy budjetlarga qo'shimcha soliq daromad manbasini topishda va uni oshirishda moliya organlari hamkorligining yaxlit mexanizmi shakllandi.



4-rasm. Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq moliyaviy mexanizmidagi muammolar¹⁴

Mahalliy budjetlar daromadlarning qo'shimcha zaxiralarini aniqlashda moliyaviy javobgar mahalliy rahbarlarning mahalliy doirada har oyda mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi va tendensiyalariga, hajmlarining o'zgarishiga, yangi ishlab

¹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi "Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zahiralari aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-son qarori

¹⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan.

chiqarish quvvatlari ochilishiga va soliq to'lovchilarning sonini tanqidiy baholashga asoslangan baholash ko'rsatkichlarini aniqlash, aniqlangan qo'shimcha tushumlar manbaini, shu jumladan aniqlangan tadbirkorlik subyektlarini, shuningdek tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining ma'lumotlar bazasida hisobga olinmagan soliq solish obyektlarini ham hisobga olish kabi muhim jarayonlar shakllandi. Tahlillarning ko'rsatishicha shu bilan birgalikda bu jarayonda bir qator muammolar ham saqlanib qolmoqda.

Mahalliy hududlardagi yirik soliq to'lovchilarning soliq tushumlari mahalliy budjetlarni daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati pastligi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etib kelmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan respublikamizda Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi (YSTHI) tuzilib, "Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq 8 ta mezonlar bo'yicha soliq to'lovchilar yirik soliq to'lovchi sifatida baholanib, ular bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi Davlat soliq qo'mitasi funksiyasiga o'tkazildi, o'z navbatida yirik soliq to'lovchi toifasiga kiruvchi soliq to'lovchi qaysidir tuman yoki shaharda bo'lishidan qat'iy nazar ularning soliq tushumlari mahalliy budjetlarga emas (yer va mol-mulkidan tashqari) respublika budjetida kelib tushadi.

7-jadval.

Surxondaryo viloyatidagi mavjud yirik soliq to'lovchilar hamda 2023-yil yakuni bo'yicha tovar aylanmasi 250 mlrd.so'mdan oshgan korxonalar tahlili¹⁵

№	Ko'rsatkichlar	Respublika miqyosida	Surxondaryo viloyati bo'yicha
A	Hozirda YSTBSI soliq to'lovchilari	2 187	60
	Shu jumladan:		
	YSTBSIda qoladigan korxonalar:	918	19
	Tovar aylanmasi 240 mlrddan yuqori	471	5
	AV-3172 bo'yicha majburiy	371	13
	Faoliyatsiz korxonalar	65	1
	Shubhali korxonalar	11	0
	YSTBSIdan hududga ko'chiriladigan korxonalar:	1 269	41
	Tovar aylanmasi 240 mlrddan yuqori	930	23
	Don korxonalari	42	2
	Klaster	137	9
	Sharob savdo, pivo va motor moyi ishlab chiqaruvchilar	54	2
	Ishchilar soni 10 nafardan kam	106	5
B	Hududdan olinadigan korxonalar:	106	0
	Tovar aylanmasi 240 mlrddan yuqori	6	0
	Tarmoq korxonalari (temir yo'llar)	13	0
	Doimiy muassasa	24	0
	Sug'urta korxonalari	19	0
V	Jami MRI xizmat ko'rsatadigan subyektlar	980	19

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari bo'yicha tuzilgan

Bu esa, ko'pgina mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qilmoqda, soliq tushumlarini budjet tizimi budjetlari o'rtasida me'yoriy taqsimlash mexanizmining ishlashiga to'sqinlik qilib qolmoqda, mahalliy budjetlarga biriktirilgan xarajatlarni moliyalashtirishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda, natijada mahalliy budjetlarning yuqori budjetga qayta-qayta so'rov qilinishiga olib kelmoqda. Shu boisdan fikrimizcha, respublikamizning boshqa hududlari hamda Surxondaryo viloyatiga ayrim yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi va soliq tushumlarini qayta biriktirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tahlillarimizga ko'ra, bugungi kunda Surxondaryo viloyatida 60 ta yirik soliq to'lovchi toifasidagi soliq to'lovchilar bo'lib, ularning soliq tushumlari respublika budjetiga jalb qilinib kelinadi, ammo, fikrimizcha, 250 mlrd so'mdan oshgan aylanmasi mavjud korxonalarni tahlil qiladigan bo'lsak, ular aksariyatida shu ko'rsatkich bajarilgan. Shu boisdan bizningcha mahalliy budjetlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Surxondaryo viloyatida 41 ta yirik soliq to'lovchi toifasidagi soliq to'lovchilarni mahalliy budjetlarga qaytarib berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni optimal taqsimlash orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi keyingi taklifimiz bu mol-mulk solig'i bilan bog'liq ilmiy takliflarimizning ilmiy asoslarini keltiramiz. Ma'lumki, bugungi kunda qurilish tarmog'i keng rivojlanib borishi bilan bir qatorda katta yuk ko'tarishga moslashgan avtotransport vositalarining ko'payishiga olib keldi va bu avtotransport vositalaridan foydalanish samarasi yuqori bo'lib, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ularni soliqqa tortish soliqqa tortishning adolatlilik tamoyiliga mos keladi deb hisoblaymiz.

8-jadval.

Ayrim yuk mashinalari (10 tonnadan ortiq) uchun joriy etiladigan yig'imlar bo'yicha avtotransport vositalarining guruhlanishi va ulardan tushumlari hisob-kitobi¹⁶ (mlrd.so'm)

T/R	Ishlab chiqarilgan yili	10 tonnadan ortiq bo'lgan yuk mashinalar soni	Yillik yig'im summasi, 5 BHM (mln so'mda)	Jami yillik yig'im summasi
	Jami	15 040	1,65	24,8
1	2000-yilgacha	1 384	1,65	2,3
2	2000 - 2010-yillar	2 329	1,65	3,8
3	2011 - 2015-yillar	3 427	1,65	5,7
4	2016 - 2020-yillar	6 312	1,65	10,4
5	2021 - 2023-yillar	1 588	1,65	2,6

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda respublikamizda 15 040 ta 10 tonnadan ortiq bo'lgan yuk mashinalar mavjud bo'lib, ularning yillar bo'yicha soni yuqoridagi javdalga keltirilgan. Ularning eng ko'p soni 2016-2020-yillarda ishlab chiqarilganlari tashkil qiladi, oxirgi yillardagi soni esa 1588 tani tashkil qiladi, yuk mashinalarning

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

yangiligiga qarab ulardan iqtisodiy jihatdan foydalanish ham yuqori va daromad ham shunga mos bo‘ladi, bizningcha, yig‘imlarni belgilashda va hisoblashda buni e‘tiborga olish lozim bo‘ladi.

9-jadval.

Ayrim yuk mashinalari (10 tonnadan ortiq) uchun joriy etiladigan yig‘imlar bo‘yicha soliq to‘lovchilar kesimida tushumlari hisob-kitobi¹⁷ (mlrd.so‘m)

№	Soliq to‘lovchilar	2024 (avgustgacha) yilda to‘langan soliq summasi	2024 yil kutilayotgan soliq summasi	Indeksatsiya miqdori	2025 yil kutilayotgan soliq summasi
1	Jismoniy shaxslar	248,3	372,5	1,12	417,1
2	Jismoniy shaxslar	Yaqin qarindoshlardan tashqari boshqalarga tekinga ko‘chmas mulk ijaraga berilganda minimal miqdorni qo‘llash			30,0
3	Yuridik shaxslar	Yuridik shaxslar uchun ham jismoniy shaxslar uchun belgilangan minimal miqdorlarni qo‘llash			476,1
4	Jami	923,2			

Albatta boshqa resurs soliqlar singari ushbu ayrim yuk mashinalari (10 tonnadan ortiq) uchun joriy etilgan yig‘imlar bo‘yicha stavkalarini inflyatsiyaning darajasi va mahalliy budjetlarga rejalashtirilgan xarajatlar miqdoridan kelib chiqib indeksatsiya qilish lozim bo‘ladi. Biz 2025-yil uchun indeksatsiya hisobiga mahalliy budjetga o‘rtacha 923,2 mlrd so‘mlik soliq tushumlari tushishini prognoz ko‘rsatkichlarini aniqladik va tegishli mahalliy budjetlarni daromad va xarajatlarini rejalashtirishda e‘tibor olinishi lozim deb hisoblaymiz. Shundan kelib chiqib, ushbu yig‘im Soliq kodeksining 456-moddasiga (yig‘imlar) yangi norma kiritilishi va ushbu yig‘imni to‘lovchilari sifatida chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki ulardan foydalanuvchilar ushbu vositalarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti deb hisoblanishi, yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining egalari ushbu vositalarning avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘imning soliq to‘lovchilari deb e‘tirof etilishi maqsadga muvofiqdir¹⁸.

Ta‘kidlash joizki, mahalliy budjetlarda biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni nisbat munosabatlarini muvofiqlashtirishda budjet tizimi budjetlariga o‘zgartirishlar kiritish masalasi ham katta ahamiyatga ega. Ammo, bugungi kunda bu masalada ham muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, daromadlarini kamaytiruvchi, soliq va bojxona imtiyozlari berishni yoki bekor qilishni hamda soliqsiz tushumlardan budjet tizimi budjetlariga ajratmalarni kamaytirishni yoki oshirishda davriy jihatdan muammo mavjud bo‘lib, bu mahalliy budjetlarni tartiblashda qiyinchiliklarni tug‘dirmoqda.

Shu boisdan ham bizning fikrimizcha, moliya yili mobaynida budjet tizimi budjetlari daromadlarini kamaytiruvchi, soliq va bojxona imtiyozlari berishni yoki bekor qilishni hamda soliqsiz tushumlardan budjet tizimi budjetlariga ajratmalarni kamaytirishni yoki oshirishni nazarda tutuvchi normalarning amalga kiritilishi keyingi

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

¹⁸ Muallifning ushbu taklifi 2024-yilda Soliq kodeksining 456-moddasida aks ettirildi.

moliya yilining 1-yanvaridan boshlanishi maqsadga muvofiqdir, chunki, mahalliy budjetlar doirasida rejalashtirilgan soliq summalarining tushumlari bo'yicha to'g'ri mo'ljall olish imkoni paydo bo'ladi. Bundan tashqari, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) kengashlariga noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkaga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolati berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.


Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliqlardan samarali foydalanish bilan bog'liq muhim jihatlardan biri soliq imtiyozlarining qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish va shu orqali soliq tushumlarini ko'paytirish katta ahamiyatga egadir. Shu bilan birgalikda yer solig'i mahalliy budjetlar uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Soliq tizimi esa yer uchastkalaridan samarali foydalanishga va ma'suliyatni oshiruvchi muhim instrument bo'lishi kerak. Biroq, yerdan samarali foydalanishda bu bilan bog'liq muammolar uchrab turibdi.

Bu muammolarning oldini olish, yerdan samarali foydalanishni rag'batlantirish va ma'suliyatni oshirish uchun agar, soliq to'lovchi yuridik shaxs yangi barpo etsa, bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar (daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar) bo'yicha uchun soliq stavkasi besh yil muddatga 50 foizga kamaytirilgan holda to'lashi lozim bo'ladi. Bunda, vakolatli organ tomonidan iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosilli bog' va tokzorlar deb xulosa berilgan sanadan boshlab o'n ikki oy davomida yangi bog' yoki tokzorlar barpo etilmagan taqdirda, ularga nisbatan soliq stavkasi 3 baravarga oshirilgan holda belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birgalikda imtiyozlarni adolatli berish uchun esa, kuzda o'tqazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozi muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e'tiboran, bahorda o'tqazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e'tiboran boshlash lozim bo'ladi.

Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) kengashlariga noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkaga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolati berish zarurligi ilmiy asoslab berilgan.

5-rasmda mahalliy budjetga daromadlarga soliqlarni optimal taqsimlash tushumining qo'shimcha manbalari va ularni hisob-kitob qilish uslubiyoti keltirilgan bo'lib, fikrimizcha, ushbu uslubiyotdan foydalanish ilmiy-amaliy jihatdan iqtisodiy samaradorlikka olib keladi va uni qo'llash bir qator bosqichlarda amal oshirish talab etiladi. Ya'ni, birinchi bosqichda, Iqtisodiyot va Moliya vazirliklarining viloyat boshqarmasi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyat ko'rsatmaslik sabablarini tahlil qilinadi va ularni tiklash bo'yicha har bir korxonada kesimida amaliy yordam ko'rsatish yo'nalishlarini ishlab chiqib, ijrosini ta'minlanishi nazoratga olinadi. Ikkinchi bosqichda, savdo, umumiy ovqatlanish, transport va qurilish korxonalarini tomonidan soliq hisobotlarida haqiqiy aylanmalarini aks

ettirilganligini tashqi manba ma'lumotlari asosida to'liq kameral nazoratidan o'tkaziladi.



5-rasm. Mahalliy budjet daromadlariga soliqlarni optimal taqsimlash tushumining qo'shimcha manbalari va ularni hisob-kitob qilish uslubiyoti¹⁹

Uchinchi bosqichda, mavjud soliq qarzini Majburiy ijro byurosining viloyat boshqarmasi bilan birgalikda oyma-oy grafik asosida to'liq undirish choralari ko'rish kerak bo'ladi. To'rtinchi bosqichda, viloyatda amalga oshirilishi belgilangan barcha investitsiya loyihalari Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va Moliya boshqarmalari tomonidan o'rganiladi va 2025-2028-yillarda ishga tushirilishi lozim

¹⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

bo'lgan loyihalar alohida monitoringga olinadi. Beshinchi bosqichda "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining viloyat bo'linmasi va davlat soliq xizmati organlari ma'lumotlari bazasida mavjud jismoniy shaxslarning mol-mulk obyektlari va yer maydonlari to'g'risidagi ko'rsatkichlar yalpi xatlovdan o'tkazilib, soliqqa tortish tashkil qilinadi. Buning uchun har ikkala davlat organidagi ma'lumotlar taqqoslanadi va ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlarni bir xilligi ta'minlanadi. Oltinchi yo'nalishda jismoniy shaxslarni noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini oldini olish borasida soliq ma'murchiligini samarali tashkil qilish orqali soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish hisobiga qo'shimcha mablag'larni jalb etish tahlil qilinadi. Yettinchi yo'nalishda esa, soliq ma'murchiligini takomillashtirish doirasida 2018-yilda joriy etilgan me'yorlarni amalga oshirish hisobiga qo'shimcha manbalarni jalb etish yo'nalishida qo'shimcha mablag'larni jalb qilish bo'lib, eksport qiluvchi korxonalarni faoliyatini o'rganish va ular tomonidan eksport hajmidan bazaviy stavkada, pasaytiruvchi koeffitsiyentni qo'llamagan holda soliqlarni hisoblanishi nazoratga olinadi. Soliqlarni pasaytirilgan stavka qo'llamasdan hisoblanishi va undirilishini ta'minlanadi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqilgan:

1. Mohiyati jihatidan, birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliqlar o'rtasidagi muvozanat mamlakat va uning soliq siyosatiga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Umumiy nazariy tahlil shundan iboratki, belgilangan soliqlar ko'pincha muayyan sohalarni (masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy infratuzilmani) moliyalashtirish kabi aniq maqsadlarga qaratilgan bo'lsa, tartibga soluvchi soliqlar ko'pincha xatti-harakatlarni o'zgartirish yoki muayyan bozorlarni nazorat qilish uchun ishlatiladi.

2. Birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimining zaruriy omillarini uch guruhga bo'lish mumkin. Bularning ichida eng muhimi barcha davlatlar uchun umumiy xos xususiyat bu hududlarning notekis rivojlanishi bo'lib, ushbu omil tartibga soluvchi soliqlarni zarurat qilib qo'yadigan eng muhimi hisoblanadi. Davlat o'zining milliy rivojlanish dasturlari orqali hududlarning rivojlanishini yaqinlashtirishga harakat qiladi. Ammo, resurslarning notekis taqsimlanishi, ayniqsa, tabiiy boyliklarning mavjudligi yoki yo'qligi o'sha hududning rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak, kon-metallurgiya sanoati uchun muhim xom-ashyo joylashgan Navoiy, Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyatlarining sanoat bo'yicha o'rta aholi jon boshiga ishlab chiqarishi bo'yicha yuqori hisoblanadi, Toshkent shahri esa infratuzilmaning rivojlanishi yuqoriligi uchun mahalliy budjetga soliq tushumlarini jalb qilishda katta imkoniyatlarga egadir.

3. Birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimidan foydalanish mahalliy budjetlarni tashkil qilish va uning mablag'laridan foydalanish darajasidan ham kelib chiqadi. Mahalliy budjetlarning birlashtirilgan soliqlari miqdoriy hajmi davlatning soliq siyosati bog'liq bo'lsa, ya'ni, qaysi soliqlarni mahalliy budjetlarning daromad

manbalari sifatida belgilashiga bog'liq bo'lsa, tartibga soluvchi soliqlarga bo'lgan ehtiyoj esa, avvalo o'sha birlashtirilgan soliqlar bo'yicha soliq tushumlarining qonunchilikda belgilangan mahalliy budjetlardan qilinadigan xarajatlarni qoplash darajasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, qonunchilikka muvofiq mahalliy budjetning xarajatlari turlari va ularning amaldagi minimal darajasiga bog'liq bo'ladi.

4. Mahalliy budjetlarning barqarorligi ta'minlash deganda nazarimizda bir necha jarayonlar va munosabatlarning o'zaro uyg'unligi tizimi tushunilishi kerak va ular o'zaro ketma-ketlikda bir birini to'ldirish lozim bo'ladi. Bular jumlasiga birlashtirilgan soliqlar bazasini kengaytirish, mahalliy budjetlar xarajatlaridan samarali foydalanish, tartibga soluvchi soliqlarni optimal taqsimlash, mahalliy hokimliklarning moliyaviy huquqlarini tartiblash va rag'batlantirish nuqtayi nazaridan takomillashtirish, budjetlararo munosabatlarni oqilona yo'lga qo'yish, mahalliy budjetlarning moliyaviy salohiyati va soliq salohiyatini to'g'ri baholash va shu kabi instrumentlardan foydalanish hamda to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liqdir.

5. Tadqiqotchining fikricha, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i KenGESi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib amalda o'rnatilgan qat'iy soliq stavkalarining eng kam va eng yuqori stavkalari doirasida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy soliq stavkalari miqdorini belgilash borasidagi moliyaviy huquqlarini berish mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy hokimliklarning roli mustahkamlaydi.

6. Soliq to'lovchi yuridik shaxs tomonidan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar yangi barpo etilgan holatda egallagan yerlar (daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'iy nazar) bo'yicha soliq stavkasini besh yil muddatga 50 foizga kamaytirilgan holda to'lashni joriy qilish yerdan samarali foydalanishni rag'batlantirish va ma'suliyatni oshirish hamda mahalliy budjetlarning birlashtirilgan soliqlaridan samarali foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi, ularning moliyaviy barqarorligini oshishi ta'minlanadi.

7. Tadqiqotchining ilmiy yondoshuviga ko'ra, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida Surxondaryo viloyatida 41 ta yirik soliq to'lovchi toifasidagi soliq to'lovchilarni mahalliy budjetlarga qaytarib berish budjet tizimi budjetlari o'rtasida birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni optimal darajada taqsimlash imkoniyati paydo bo'ladi va mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligi oshishga olib keladi.

8. Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) Kengashlariga suv resurslaridan foydalanganlik solig'i stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkaga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolatini berish mahalliy budjetlarning daromadlarining yangi manbalarini yuzaga kelishiga va ularning moliyaviy barqarorligini oshishini ta'minlanadi.

9. Muallifning fikricha, budjet tizimi budjetlari o'rtasida birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni taqsimotida: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan

tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) Navoiy viloyatida 66 foizi, Toshkent viloyatida 51 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizini, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import qilinadigan alkogol mahsulotlari va pivodan tashqari) uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadigan aksiz solig'ining Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 30 foizi o'tkazish budjet tizimi budjetlari o'rtasida birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliqlarni optimal taqsimlanish jarayoniga hisobiga mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoniyati oshadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD №03/30.07.2024.I.78.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ТУРОПОВА НИГОРА ХОЛМУРОД КИЗИ

**ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОГЛАСОВАННОСТИ
ЗАКРЕПЛЁННЫХ И РЕГУЛИРУЮЩИХ НАЛОГОВ ПРИ
ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МЕСТНЫХ
БЮДЖЕТОВ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Термез – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией под номером В2025.1.PhD/Iqt5081.

Диссертационная работа выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Учёного совета (www.tsuyc.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Худойкулов Садирдин Каримович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Алимарданов Ильхом Музробшович
доктор экономических наук, доцент
Хужакулов Рамнод Юнусович.
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация: Деновский институт предпринимательства и педагогики

Защита диссертации состоится в 9⁰⁰ часов "7" 08 2025 года на заседании Научного совета PhD. 03/30.07.2024.I.78.06 по присуждению ученых степеней при Термезском государственном университете, (Адрес: 190, г. Термез, ул. Баркамол авлод, д. 43. Тел.: (99 876) 221-72-34, факс: (99 862) 228-01-20, e-mail: info@tersu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрирована под номером 304). (Адрес: 220100, г. Термез, ул. Баркамол авлод, д. 43. Тел.: (99 876) 221-72-34, факс: (99 876) 228-01-20, e-mail: info@tersu.uz)

Автореферат диссертации распространён "23" "07" 2025 года.

(Протокол реестра № 4 от "23" "07" 2025 года.)



А.Х. Тошкуллов
Председатель Учёного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

У.Т. Тулаков
Секретарь Учёного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии экономических наук, доцент

С.Ж. Гадоев
Председатель Научного семинара при Учёном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой практике в государственной финансовой политике особое внимание уделяется определению мер, направленных на решение проблем по обеспечению баланса между бюджетами бюджетной системы. Согласно выводам Международного валютного фонда, в различных развитых странах мира проблема согласованности закреплённых и регулирующих налогов остаётся острой. Например, «Например, в Швеции они составляют примерно 60 % доходов от местных налогов. Этот показатель в 2023 году показал рост на 3–5% по сравнению с 2022 годом, а объём субсидий, выделенных для местных бюджетов, в 2023 году достиг 30 миллиардов евро. Германия отличается ростом местных налогов, особенно налога на землю и налога на имущество. В 2023 году поступления от местных налогов выросли на 3–4% по сравнению с 2022 годом. В 2023 году федеральным правительством было выделено 100 миллиардов евро субсидий местным бюджетам, и это вынуждает осуществлять частые изменения в налогово-бюджетной политике стран»¹. При этом одним из основных процессов является обеспечение устойчивости местных бюджетов, а согласование соотношений закреплённых и регулирующих налогов имеет важное значение в качестве ключевого фактора.

В мире проблема согласования между закреплёнными и регулируемыми налогами при обеспечении финансовой устойчивости местных бюджетов является одним из актуальных направлений современной финансово-фискальной политики, а научные исследования в этой области в основном направлены на вопросы повышения устойчивости и прогнозируемости налоговых поступлений, оптимизации межбюджетных отношений, обеспечения региональной финансовой самостоятельности, а также сокращения социально-экономического неравенства через распределение налогов. Также исследования охватывают подходы, направленные на повышение эффективности налоговой политики за счёт чёткого разграничения налоговых полномочий на национальном и местном уровнях, совершенствования механизмов регулирующих трансфертов, а также анализа роли макроэкономической стабильности в обеспечении фискальной безопасности.

В Узбекистане в целях обеспечения финансовой устойчивости местных бюджетов реализуются ряд институциональных и нормативно-правовых реформ по достижению согласованности между закреплёнными и регулируемыми налогами. В частности, внедряются новые механизмы регулирования межбюджетных отношений, определяются меры, направленные на расширение налогово-доходной базы местных органов власти и повышение их финансовой самостоятельности. Во взаимораспределении налоговых поступлений между государственным и местными бюджетами внедряются чёткие и прозрачные критерии, в том числе расширяется практика закрепления части налога на доходы физических лиц и налога на прибыль за местными бюджетами. Кроме

¹ Информация сайта Consultation on IMF's Revised Draft of the Fiscal Transparency Code

того, система регулирующих трансфертов пересматривается, и их расчёты формируются на основе социальных потребностей населения и уровня регионального развития. Посредством этого поставлена цель обеспечить местные бюджеты стабильными источниками доходов и реализовать эффективное фискальное управление. Были осуществлены значительные реформы в направлении стимулирования деятельности налогоплательщиков, поэтапного снижения налоговой нагрузки и дальнейшего развития налоговой системы, основанной на принципах справедливого налогообложения. Таким образом, на сегодняшний день состояние процессов формирования местных бюджетов и обеспечения их финансовой устойчивости показывает, что в данной сфере всё ещё существуют научно-практические проблемы, ожидающие своего решения, и вопросы усиления научных исследований, посвящённых их решению, выходят на повестку дня.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых в Указе Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2020 года № УП-6098 «О мерах по сокращению теневой экономики и повышению эффективности деятельности налоговых органов», Указе от 29 июня 2018 года № УП-5468 «О Концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан», Указе от 7 июня 2017 года № УП-5075 «О мерах по расширению полномочий органов государственной власти на местах при формировании местных бюджетов», Указе от 18 июля 2017 года № УП-5116 «О мерах по коренному совершенствованию налогового администрирования, повышению собираемости налогов и других обязательных платежей», Постановлении от 10 июля 2019 года № ПП-4389 «О дополнительных мерах по совершенствованию налогового администрирования», Постановлении от 7 июня 2017 года № ПП-3042 «О расширении бюджетных полномочий органов государственной власти на местах и повышении их ответственности в формировании доходов местных бюджетов», а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики» развития науки и технологий Республики.

Степень изученности проблемы. По теоретико-методологическим вопросам обеспечения согласованности закреплённых и регулирующих налогов при обеспечении финансовой устойчивости местных бюджетов проводится множество научных исследований. В частности, такими учеными как А.Вагнер, К.Х.Рау, Д.Рикардо, У.Петти, П.Прудон, Дж.М.Кейнс, Ф.Кейн, Дж.С.Милль, К.Р.Макконнел, Я.Лукашевич, Л.С.Тарасевич, П.И.Гребеников, А.И.Леусский, Н.А.Бондарева, И.А.Майбуров, Э.Селигман, Р.Штурм, М.Р.Пинская, В.А.Рубан, В.В.Томаров, Н.В.Замятина, Г.И.Данчикова, Т.Н.Рослякова, А.Шахмарданова и другими научно-теоретически проанализированы специфические особенности

